

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ODIL SUDLOV AKADEMIYAS 2026-yilning 1-yarim yilligida ochiqlikni ta’minlash bo‘yicha o‘zini o‘zi baholash HISOBOTI

1. Umumiy ma’lumot

Mazkur hisobot “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ochiqlikni ta’minlashga oid hujjatlari hamda Ochiqlik indeksini baholash metodikasi asosida tayyorlandi.

Hisobotning maqsadi Akademiyada axborot ochiqligini ta’minlash holatini baholash, mavjud yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan zarur choralarni belgilashdan iborat.

2. O‘zini o‘zi baholash natijalari

2026-yil davomida Akademiyaning rasmiy veb-sayti muntazam yangilanib borildi.

Xususan:

- Akademiya faoliyatiga oid yangiliklar muntazam e’lon qilindi;
- rahbariyat, tarkibiy tuzilma va aloqa ma’lumotlari yangilandi;
- normativ-huquqiy hujjatlar joylashtirildi;
- murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha axborotlar e’lon qilindi;
- davlat xaridlari, moliyaviy ma’lumotlar hamda ochiq ma’lumotlar bosqichma-bosqich yangilanib borildi;
- jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida so‘rovnomalar tashkil etildi;
- korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ma’lumotlar muntazam e’lon qilindi.

Shuningdek, Akademiyaning Telegram, Facebook, Instagram, YouTube, LinkedIn va boshqa rasmiy sahifalari orqali ham jamoatchilik muntazam xabardor qilib borildi.

3. Aniqlangan kamchiliklar

O‘zini o‘zi baholash natijasida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- ayrim sahifalarda axborot joylashtirilgan va yangilangan sana ko‘rsatilmagan;
- ayrim ochiq ma’lumotlar o‘z vaqtida yangilanmagan;

- ochiqlik bo'yicha yakuniy hisobot va chora-tadbirlar rejasi alohida sahifada e'lon qilinmagan;
- ayrim statistik ma'lumotlar to'liq ko'rinishda joylashtirilmagan;
- murojaatlar bo'yicha ayrim tahliliy ma'lumotlarni kengaytirish zarur.

4. Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasida axborot ochiqligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, axborotlarning dolzarbligi va to'liqligini ta'minlash hamda Ochiqlik indeksi mezonlari bo'yicha yuqori natijalarga erishish maqsadida ayrim chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.